

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ  
ЖАҲОН ТИЛЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ФРАНЦУЗ ТИЛИ НАЗАРИЯСИ  
ВА АМАЛИЁТИ КАФЕДРАСИ**

**РОМАН ВА ГЕРМАН  
ТИЛШУНОСЛИГИНИНГ ДОЛЗАРБ  
МАСАЛАЛАРИ**

**Республика илмий-амалий конференцияси  
материаллари  
4 июль 2020 йил**



**Тошкент 2020**

<https://buxdu.uz>

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ЖАҲОН ТИЛЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ**

**РОМАН GERMAN ФИЛОЛОГИЯСИ ФАКУЛЬТЕТИ**

**ФРАНЦУЗ ТИЛИ НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЁТИ КАФЕДРАСИ**

**“РОМАН ВА GERMAN ТИЛШУНОСЛИГИНИНГ  
ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ”**

**МАВЗУСИДА РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАТЕРИАЛЛАРИ  
ТЎПЛАМИ**

**4 ИЮЛЬ 2020 ЙИЛ**

**ТОШКЕНТ – 2020**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 7 февралдаги 56-ф-сонли Фармойиши асосида Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил 13 февралдаги “Вазирлик тизимидаги олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларида 2020 йилда ўтказиладиган илмий ва илмий-техникавий анжуманлар режасини тасдиқлаш тўғрисида”ги 116-сонли буйруғида белгиланган қарори ижросини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети “Француз тили назарияси ва амалиёти” кафедраси томонидан 2020 йил 4 июль куни “**Роман ва герман тилшунослигининг долзарб масалалари**” мавзусида республика илмий-амалий анжумани ўтказилмоқда.

Ушбу тўпламга илмий конференция катнашчилари, республика ОТМ профессор-ўқитувчилари, катта илмий ходим изланувчилари ва тадқиқотчилар ҳамда магистрларнинг илмий мақолалари киритилган.

### **Масъул муҳаррирлар:**

ф.ф.д., профессор Ж.А. Якубов  
ф.ф.н., доцент П.П. Нишонов

### **Таҳририят аъзолари:**

ф.ф.н., доцент М.У. Убайдуллаев  
ф.ф.н., доцент Ҳ.Р. Рахимов  
ф.ф.н., доцент Т.Ж. Олтиев  
Катта ўқитувчи З.Б. Давронова  
Катта ўқитувчи Ғ.Т. Машарибов

### **Такризчилар:**

ф.ф.д., профессор А.Э. Маматов (ЎЗМУ)  
ф.ф.н., доцент Н.Сувонова (СамДЧТИ)

**Дизайнер:** доцент С. Исматов

*Тўпламдан ўрин олган мақолаларнинг савияси, сифати ва илмий далилларнинг ҳаққонийлиги ҳамда мазмуни учун муаллифлар масъулдирлар.*

**ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:**

1. Вежицкая А.А. Семантические универсалии и описание языков. М.: Языки русской культуры, 1999. 780 с.
2. Добровольский Д.О. Национально-культурная специфика во фразеологии // ВЯ. 1997. С. 37–48.
3. Карасик В.И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность: культурные концепты. Волгоград-Архангельск: Перемена, 1996. - С.3-16.
4. Ляпин С. Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты. Вып. I. Архангельск, 1997. С. 16–25.

**FRANSUZ ZAMONAVIY FRAZELOGIYASIDA LINGVOKULTUROLOGIK SHIFOBAXSH FITONONIMLAR**

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini rad etib bo'lmaydi. Madaniyat tilning muhim jihati bo'lib, uning ayro holda ko'rilishi imkoni yo'q. Til nafaqat zamonaviy madaniyatni o'z vaqtida ko'rsatibgina qolmay, balki tarixiy xususiyatlarini ham aks ettiradi, ya'ni uning boyligini avloddan-avlodga yetkaza oladi.

Til o'rganishga bo'lgan bunday yondashuvga asoslanib, frazeologiyaning tillar hamjamiyatining milliy-madaniy an'analari bilan chambarchas bog'liqligini kuzatish mumkin. Frazeologiyaning har qanday jihatini o'rganib, uning milliy o'ziga xosligini bilib olishingiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday o'ziga xoslik nafaqat bitta frazeologik birlikka, balki butun tilning frazeologik tizimiga ham xosdir.

Frazeologiya o'zi bu nima? "Frazeologiya" atamasi yunoncha "pharsis" fraza, ifoda "logos" ta'limot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial

*Odilshoh Bobokalonov – BuxDU o'qituvchisi*

belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idiomatik frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda ajratadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Buyuk rus tilshunosi V.V. Vinogradov frazeologiya tarkibiga barqaror jumlar hamda «qanotli» so'zlarni kiritilishiga qarshi bo'lgan va "maqol va matallar so'z ekvivalenti bo'la olmasligi,

hamda shaklan gapga teng bo'lgani uchun frazeologiyaning o'rganish obyekti bo'la olmaydi" deb aytib o'tgan.

O'zbek tilining FB'lari ham har taraflama tadqiq etildi. Sh.Raxmatullayev, Y.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainovlarning nomzodlik dissertatsiyalarini o'zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar qatoriga kiritish mumkin. Agar Sh.Raxmatullayevning nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi fe'l iboralarning Grammatik xususiyatlarini o'rganish ishi boshlab berilgan bo'lsa, olim 1966 yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi va shu asosda e'lon qilingan "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasi bilan tilimizdagi FB'larni lug'aviy birlik sifatida o'rganishni asosladi. Bu ishda FB'lardagi polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonimiya, omonimiya hodisalari boy asosli material tahlili asnosida chuqur tadqiq etilib, iboralarning lug'aviy birlik sifatidagi boshqa belgi-xususiyatlarini tekshirishga yo'l ochilgan.<sup>1</sup>

Tadqiqotimizda alohida o'rganishni talab qiluvchi fransuz frazeologiyasini o'rganish uzoq o'tmishga borib taqaladi. Uning ilmiy fan sifatida shakllanishi fransuz tilining frazeologik iboralarini tanlash, tahlil qilish va tizimlashtirishda fransuz tadqiqotchilari va olimlarining (P. Jiro, M. Ra, A. Rey va boshqalar) doimiy, uzluksiz faoliyati hozirgacha ko'plab tadqiqotlar asosi sanaladi. Xususan, tilshunoslik tarixida birinchi marta frazeologik hodisalarni nazariy asoslab bergan va tilda barqaror birikmalarni maxsus o'rganish zarurligini ilmiy asoslaganligi sababli zamonaviy frazeologiyaning poydevorini yaratgan shvetsariyalik fransuzabon olim Charl Balli haqida unutmazligimiz joiz. 1900 yillarning boshida frazeologiyaning tilshunoslikda ma'lum bir fan sifatida kirib

kelishiga va tilshunos olimlarning bu sohaga alohida e'tibor qaratishi Sh.Balli nomi bilan bog'liqdir. Binobarin, qadimdan tilshunoslar turg'un so'z birikmalarini sintaksis, leksikologiya va semantika singari fanlar obyekti sifati o'rganib kelishgan. Biroq, Sh.Balli tilning bunday birliklarini maxsus fan, ya'ni frazeologiya nuqtayi nazaridan sistematik tarzda o'rganish lozimligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bunga uning frazeologik konsepsiya ilgari surilgan Précis de stylistique (1905) va Traité de stylistique française (1909) nomli asarlari yaqqol misol bo'la oladi.

Tilshunoslikda sosiologik ta'limotning asoschilaridan biri Ferdinand de Sossyur o'z davrida frazeologizmlarni tildagi tayyor birliklar sifatida qayd etgan edi.<sup>2</sup> Amerikalik tilshunos olim Uolles L.Cheyf frazeologik birliklar haqida, til taraqqiyotining ma'lum bosqichida yuzaga kelgan o'zgarishlar yangi ma'nolarni yaratadi, ularni ifodalashda alohida qoliplar shart bo'lmay, balki biror eski, ya'ni tilda avvaldan mavjud bo'lgan materiallardan foydalaniladi, degan edi.<sup>3</sup>

FB so'z birikmalar, iboralar yoki yakka so'zlarga nisbatan teng mazmundagi muqobili bo'lib, yaxlit ifoda vositasi sifatida har bir tildagi muloqot funksiyasini ta'minlaydi. Asrlar davomida odamlar tomonidan yaratilgan va ular tomonidan sayqallangan tilning ushbu milliy noyob xazinasini alohida ehtirom ila o'rganilib, shubhasiz tadqiq etilmoqda.

Fransuz tilining boyligini inobatga olgan holda, biz fransuzcha idiomalar lug'atidan ketma-ket tanlab olish usuli bilan tanlangan, faqat farmakofitonim komponentiga ega bo'lgan frazeologik birliklarni hisobga olgan holda, tadqiqotlarimiz doirasini chekladik. Farmakofitonimiya – yunoncha “phármakon” dori, afyun, “phutônumos” – o'simlik nomi so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib,

<sup>1</sup> Йулдошев Б. Ҳозирги узбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – Б.8

<sup>2</sup> Соссюр де Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С.157

<sup>3</sup> Чейф У.Л. Значение и структура языка. – М.: Прогресс, 1975. С.– 25

farmakofitonimlar – atamasi rus olimasi O. G. Rubtsova tomonidan kiritilgan.<sup>1</sup> Tilshunoslik sohasi sifatida ushbu tushuncha har qanday millat tilida mavjud bo'lgan va mavjudligining madaniy, geografik va diniy xususiyatlarini aks ettiradigan eng qadimgi genetik leksiko-semantik guruhlardan birini tashkil qiladi. Xalq orasida shifobaxsh o'simlik nomlarini mujassamlashtiruvchi farmokofitonimiya sohasi eng qadimgi mikrosistemalardan biri bo'lib, unda shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan o'simlik dunyosini insonni o'rab turgan tabiatning ajralmas in'omi sifatida madaniy-mifologik va amaliy bilish tajribasi namoyon bo'ladi.

Quyida e'tiboringizga havola etilayotgan, leksik-semantik, frazeologik hamda etimologik tahlil natijasida yuzaga kelgan FBlarning turli tematik guruhlarda tasnif etgan holda lingvomadaniy mazmun xususiyatlarini ta'riflab o'tamiz :

**1) Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mazmundagi shifobaxsh fitonim komponentli frazeologizmlar**

**Une république bananière<sup>2</sup>** – poraxo'r mamlakat (so'zma so'z tarjimai "bananchi respublika"). Ingliz tilida ommalashgan muqobili « **banana republic** ». Ushbu iboraning paydo bo'lishida siyosiy-iqtisodiy fenomenlar muhim rol tutadi.

**Mettre du beurre dans les épinards** – yashash sharoitini yaxshilamoq, ko'proq pul topmoq (so'zma so'z tarjimai "ismaloqlarga sariyo'g surkamoq"). Xuddi fransuz jamiyatida bo'lgani kabi yog', sariyog' va moy tushunchalari qadimdan boylik mazmuniga yaqin tushuncha sifatida qaralgan.

**La cerise sur le gâteau** – chiroyli yakun topgan voqea (so'zma-so'z tarjimai: « tort ustidagi olcha »). Shifobaxsh va tabiatan

chiroyli olchanning pishiriqni bezab turishi asnosida yaralgan fransuzcha metafora inglizcha muqobili « the cherry on the cake » yoki « the cherry on top » frazeologizmlari mazmun doirasi bir sathda turadi.

**Avoir les yeux en amande** – qisiq ko'zli bo'lmoq (so'zma so'z tarjimai : bodom ko'zga ega bo'lgan). Bodom o'simligining ko'zga nisbatan shakliy ma'no ko'chishi asosida paydo bo'lgan.

**C'est un peu fort de café !** – Ishonish qiyin, chunki lof uryapsan ! (so'zma so'z : bu biroz achchiq qahva !). XIX asrda paydo bo'lgan ushbu ibora so'z o'yini asnosida paydo bo'lgan, ya'ni juda achchiq qahvadanda achchiq qahva bo'lmasligi xalq orasida suhbat jarayonida hangoma bo'lgan. Madaniy jihatdan men sendan ustun qabilidagi ma'no kasb etuvchi « un peu » frazeologik komponenti mazmuni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Mettre du beurre dans les épinards** – yashash sharoitini yaxshilamoq, ko'proq pul topmoq (so'zma so'z tarjimai "ismaloqlarga sariyo'g surkamoq"). Xuddi fransuz jamiyatida bo'lgani kabi yog', sariyog' va moy tushunchalari qadimdan boylik mazmuniga yaqin tushuncha sifatida qaralgan. Misol : o'zbek nutqida tez-tez «yog'li ish », « moyli ish » kabi frazeologizmlar ushrib turadi. Ushbu metaforali iboraning mazmuni o'z-o'zidan ayon. Dorivor ismaloq albatta parhezli hayotbaxsh o'simlik, ammo uni sariyog'siz iste'mol qilish fransuz burjuaziyasi uchun umuman mos kelmasdi. Shunday qilib, ismaloq (inson yashash sharoiti) ta'mini yaxshilash uchun unga ta'bga qarab sariyog' (pul) qo'shilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, har qanday axborotni nutqda tashkil qilish, ishlab chiqarish va uzatish uchun asosiy vosita bu tildir. Til lug'ati, shu jumladan farmakofitonimlar leksikasi til tizimining shifobaxsh muloqotbop jabhasi sifatida ko'p o'zgarib borishi mumkin.

<sup>1</sup> Рубцова О.Г. Названия лекарственных растений в разноструктурных языках (на материале русского, марийского, немецкого и латинского языков): дис. ... канд. филол. наук. Йошкар-Ола, 2015. 218 с.

<sup>2</sup> Marie Bordet, « La nouvelle guerre de la banane », Le Point, no 2188, 21-avgust 2014, b. 51.

Og'zaki nutq leksik hosilalarini shifobaxsh fitonimiya tizimida o'rganish insoniyat madaniyatining muhim qatlami bo'lgan dunyo tasvirining o'ziga xosligini aniqlashga imkon beradi. Iboralar har bir tilning

muhim va o'ziga xos birliklaridan biri ekan, ular vositasi orqali albatta o'sha xalq madaniyati, o'ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishishga keng yo'l ochadi.

## ЭРТАКЛАРДАГИ МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ ЎХШАШЛИК ВА ФАРҚЛИ ЖИХАТЛАР

(француз ва ўзбек эртаклари мисолида)

Ф.ф.д., М.М.Жўраева, БухДУ

*Мазкур мақолада адабиётшуносликдаги кенг тадқиқ эта олиши имкони мажуд бўлган эртаклардаги лингвомаданий хусусиятлар, улардаги умумийлик, хусусийлик, муштараклик ҳамда дифференциал белгилар тўғрисида фикр юритилади. Шунингдек, икки ноқардош тил – француз ва ўзбек эртакларидаги миллий-маданий ўхшашлик ва фарқлар мисоллар асосида таҳлилга тортилади.*

**Калит сўзлар** лингвокультурология, этносемантика, концептуал белги, модаллик турлари, категория, мотив, бошлама, тугалланма, нақл, қадрият, менталитет, формула, персонаж, жанр, сюжет, модус, диктум

*This article discusses the linguocultural features of fairy tales, their generality, specificity, commonality and differential features, which can be widely studied in literature. The national and cultural similarities and differences in the two incompatible languages - French and Uzbek fairy tales - are also analyzed on the basis of examples.*

**Keywords:** *lingvoculturology, ethnosemantics, conceptual character, types of modality, category, motive, beginning, completion, transmission, value, mentality, formula, character, genre, plot, mode, dictum*

*В данной статье рассматриваются лингвокультурные особенности сказок, их общность, специфика, общность и дифференциальные признаки, которые могут быть широко изучены в литературе. На основе примеров также анализируются национально - культурные сходства и различия в двух несовместимых языках - французских и узбекских сказках.*

**Ключевые слова:** *лингвокультурология, этносемантика, концептуальный характер, типы модальности, категория, мотив, начало, завершение, передача, ценность, менталитет, формула, персонаж, жанр, сюжет, модус, диктум*

Эртак тушунчаси белгилари, албатта, лингвокультурология, этносемантика нуқтаи назаридан ҳам ажралиб туришини инкор қилиб бўлмайди. Чунки эртак – ментал ходиса. У оғзаки айтилгани ва ёзиб

олингани учун унга эртакчининг – хоҳ у эртак айтувчи бўладими, хоҳ эртакни ёзиб олувчи бўладими, тил менталитети ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди.

Даниёрова Б. М. Эменинг «la patte du chat» ( мушук панжаси) номли эртаги таржимасининг қиёсий таҳлили (Француз ва ўзбек тили мисолида).....	230
Илёсов И., Рахимов Х.Р. Эртақ таржимасида метафоранинг қайта яратилиши...	234
Kurbonova O. Tarjimaning lingkulturologik muammolari.....	239
Тожимуратова М. Фразеологизмы как элемент разговорной речи и особенности их перевода.....	241
Рахимов Х.Р. Таржима ҳам нутқ фаолияти тури ҳисобланади.....	244
Аноркулов С. Топоним компонентли немисча фразеологизмлар.....	247
Mustafayev S.B. Virtual muloqot janrlarining tasnifi.....	249
Джусупов Н.М. К вопросу о корреляции терминов «девиация» и «аномалия» лингвистических исследованиях (стилистический аспект).....	253
Эркинова Л. Способы выражения категории извинения в современном английском языке.....	255
Соляхова Л.Р. Особенности обучения иностранному языку в академии ВС РУ...	259
Курганова Р.Н. Анализ урока – деятельность, полезная для становления учительского мастерства .....	261
Исматова Ш., Рўзибоева Н.Қ. Адекватлик ва эквивалентлик - таржима назариясининг асосий тушунчалари.....	263
Хакимов Х.И. Способы выражения категории модальности побуждения в современном английском языке.....	265
Имяминова Ш. Бадиий таржимада фразеологизмлар.....	268
Имяминова Ш., Давронов Ж. Нибелунглар кўшиғи – немис халқи тарихидан ёдномалар.....	271
Yozilova F.N., Djumabayeva J.Sh. Bilinguals are more proficient language learners..	274
Нишонов П.П. Понятие концепта «труд» во французском и русском языках.....	276
Vobokalonov O. Fransuz zamonaviy frazeologiyasida lingvokulturologik shifobaxsh fitononimlar.....	280
Жўраева М.М. Эртақлардаги миллий-маданий ўхшашлик ва фарқли жиҳатлар (француз ва ўзбек эртақлари мисолида) .....	283
Н.Б.Кулдашова. Спорт терминларининг шаклланиши ва маданий-тарихий ривожланиши ҳақида.....	288
Хазратова З.М. Инглиз тили ўқитиш жараёнида оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиш.....	290
Nazarov V.Sh. L'utilisation effective du document video dans l'enseignement des langues etrangeres.....	293
Нишонов П.П., Шодмонова Ф.И. Жан де лафонтен масалларининг лингвистик ва бадиий хусусиятлари .....	295
Ахмедова А.К. “Эроусмит” романида аёллар образи .....	299
Мусахонов Х.М. Инглиз ва ўзбек тили нутқий маданиятига хос мулоқот шакллари..	301
Отакулов Н. Б. Мезуратив фразеологизм тушунчаси.....	304
Базарова Ш.А. Педагогик методлар ва уларнинг тарбиявий жараёндаги роли..	308
Акромов У.Ш., Шодмонова Ф. И. Le secret d'un recit de jmg le Clezio.....	310
Исмоилова Д., Акромов Ф.Н. “Petit louis” романида лисоний тасвир воситаларининг қўлланиши.....	312
Ogay M. The formation of young learners' foreign language speaking skills.....	315
Kurbonova O. Tarjimaning lingvokulturologik muammolari.....	317
Рузматова Д. Р. Бадиийлик эстетик категория сифатида.....	320
Қосимова Х.О., Хошимов Ғ.М. Турли тизимдаги тилларда кириш бўлақлар ва уларни ифодаловчи синтактик воситалар.....	323
Khakimova S., Tukhtakhodjeva Z.T. Symbols in modern linguistics.....	327



Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

© ЎзДЖТУ. 2020

## “РОМАН ВА GERMAN TИЛШУНОСЛИГИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ”

МАВЗУСИДА РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАТЕРИАЛЛАРИ  
ТЎПЛАМИ

**Muharrir:** Sotvoldiyeva Sanobar

**Texnik muharrir:** Abduvaqqosova Dilafruz

**Musahhih:** Очилова Шахноза

**Sahifalovchi:** Айнар Нуриббетов

Босишга рухсат этилди: 25.26.2020. Шартли босма табоғи: 40.

Бичими 210X290. Адади: 200. Буюртма №19.

“KONDOR” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Kichik xalqa yo’li, 21-109<sup>A</sup> uy.